



R.Tojiyev

2023 yil

Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro institutida Korrupsion xavf-xatarlarnii aniqlash va baholash uslubiyoti

1- bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Uslubiyot Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti, institutning barcha bo‘limlari, fakultetlari, shuningdek, institut huzuridagi akademik litsey va texnikumlar (keyingi o‘rinlarda - institut)ga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarish jarayonida kelib chiqadigan korrupsion xavf-xatarlarni baholashga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi hamda institut va uning huzuridagi akademik litsey va texnikumlarda korrupsion xavf-xatarlarni baholash bo‘yicha yagona yondashuvni shakllantirishga qaratilgan.

2. Institutda korrupsion xavf-xatarlarnii baholashdan maqsad quyidagilardan iborat:

Institut faoliyatini har tomonlama tahlil qilish orqali korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimlar va funksiyalarni aniqlash;

Korrupsion xavf-xatarlarnii minimallashtirish borasida samarali profilaktik choralarni ishlab chiqish.

3. Institutda korrupsion xavf-xatarlarnii baholash quyidagilarni ishlab chiqishni nazarda tutadi:

korrupsion xavf-xatarlarnii minimallashtirish loyihalashlari;

Institutda korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha chora-tadbirlarni, mas’ul ijrochilarni, amalga oshirish mexanizmini va ularni bajarish muddatlarini o‘z ichiga olgan dastur.

4. Institutda korrupsion xavf-xatarlarni baholash har yili, istisno tariqasida quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

Korrupsion xavf-xatarlarni dastlabki baholash zarurati;

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga o‘zgarishlar kiritilgan taqdirda;

Institutning ichki hujjatlarida funksiyalar yoki jarayonlarni amalga oshirilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan o‘zgarishlar kiritilganda;

Institut va uning huzuridagi akademik litseylar va texnikumlar tarkibida o‘zgarishlar kiritilganda, yangi funksiyalar paydo bo‘lganda, institutda xavf-xatar funksiyalarni amalga oshirish xususiyatlarida o‘zgarishlar yuzaga kelganda;

Institutda korrupsion xavf-xatarlar darajasiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa majburiyatlar yuzaga kelganda.

5. Mazkur Uslubiyotda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

Korrupsion xavf-xatarlar xaritasi - institutdagi korrupsion xavf-xatarlarni baholash natijalari bo‘yicha tuziladigan hujjat bo‘lib, u o‘z ichiga davlat organi yoki muassasasining funksiyalari va jarayonlari ro‘yxatini, tegishli funksiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq ehtimoliy korrupsion xavf-xatar(sxema)lar tavsifini, korrupsion xavf-xatarlarning mavjud yoki qoldiq darajasini, ularni kamaytirish bo‘yicha tadbirlarni, amalga oshirish muddatlarini, aniqlangan korrupsion xavf-xatarlarnii kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun javobgar xodimlarni qamrab oladi.

Korrupsion xavf-xatarlarnii umumlashgan xaritasi - institutda korrupsion xavf-xatarlarni baholash natijalari bo'yicha tuziladigan umumlashgan hujjat bo'lib, u o'z ichiga institutdagi funksiyalar va jarayonlarning umumiy ro'yxatini, tegishli funksiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan, extimoliy korrupsion xavf-xatar(sxema)lar tavsifini, korrupsion xavf-xatarlarning mavjud yoki qoldiq darajasini, ularni kamaytirish bo'yicha tadbirlarni, aniqlangan korrupsion xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun javobgar xodimlarni qamrab oladi.

Korrupsion xavf-xatar - institut xodimlari yoki uchinchi shaxslar tomonidan institut nomidan yoki ularning manfaatlarini ko'zlab korrupsiyaviy xati-harakatlarni sodir etish extimoli va xavfi, shu jumladan:

tabiiy xavf-xatar - institut uchun xos xavf-xatar turi bo'lib, uni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ijrosini inobatga olmagan holda amalga oshiriladigan funksiyalar va faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari (ya'ni, mavjud korrupsiyaga qarshi kurash siyosati va tartib-taomillarni, shuningdek xavf-xatarni kamaytirish hamda joriy etilgan nazorat chora-tadbirlarini inobatga olmagan holda);

Qoldiq xavf-xatar - institut tomonidan xavf-xatarga qarshi choralarini ko'rganidan keyin qoladigan xavf-xatar turi (ya'ni, mavjud korrupsiyaga qarshi kurash siyosati va tartib-taomillarni, shuningdek xavf-xatarlarni kamaytirish hamda joriy etilgan nazorat chora-tadbirlarini inobatga olgan holda);

Korrupsiyaviy harakatlar — xodim tomonidan pora beruvchining manfaatlarini ko'zlab harakat yoki harakatsizligi uchun bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali porani, ya'ni pul, qimmatbaho qog'ozlar, boshqa mol-mulkni, mulkiy tushdagi xizmatlarni, boshqa mulkiy huquqlarni olish, talab qilish, taklif qilish, va'da qilish, shuningdek pora berish va (yoki) olishda vositachilik qilish, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlarni olish, xodim tomonidan pora olish yoki huquqqa xilof boshqa maqsadlarda o'z xizmat mavqeyidan noqonuniy foydalanish;

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik - korrupsiya belgilariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi — institutning tarkibiy bo'linmasi institutda korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ul bo'linma;

Korrupsion xavf-xatarlarnii baholash — institutning amalga oshiriladigan vazifalarini tahlil qilish, ularning korrupsion xavf-xatarlarga moyilligi darajasini aniqlash, shuningdek tegishli funksiyalar doirasida amalga oshiriladigan jarayonlar uchun tabiiy va qoldiq xavf-xatarlarni baholash bo'yicha faoliyat turi;

Tartib - bitta shaxs tomonidan bajarilishi asosida bitta guruhga birlashtirilishi mumkin bo'lgan yoki bitta natijaga yo'naltirilgan yoki ma'lum bir jarayonning ajralmas elementi bo'lgan institut funksiyalarini amalga oshirish doirasidagi harakatlar majmui;

Funksiya - bir necha tartib-taomillar yig'indisini tashkil etuvchi institut faoliyatining ichki jarayonlaridan biri (faoliyat yo'nalishi).

Ekspert xulosasi - Institutdagi bo'linma yoki xodimning sub'yektiv qarashlari yoki fikriga, ma'lum bir dalil yoki jarayonga asoslangan qaror.

6. Institutdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uni amalga oshirish muddatlari ko'rsatilgan holda, institut rektorining ko'rsatmalari asosida amalga oshiriladi.

7. Korrupsion xavf-xatarlarni baholash ishchi guruhlar tomonidan amalga oshiriladi, ularning tarkibi quyidagicha tasdiqlanadi:

institut uchun - rektor tomonidan;

bofiimlar, fakultetlar uchun - ma'sul rahbari tomonidan.

8. Institutning ishchi guruhlarini tarkibiga quyidagilar kiradi:

Institutning Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi yoki koordinator/ tegishli bo'lim korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi xodimi; institut funksiyalari (vazifalari)ni bajaruvchi tarkibiy bo'linmalar rahbarlari; korrupsion xavf-xatarlar darajasini baholash uchun yetarli bilim va tajribaga ega bo'lgan institutning boshqa xodimlari.

9. Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi institutdagi korrupsion xavf-xatarlarni baholashni amalga oshiradi, shuningdek, institutning barcha fakultetlarda xavf-xatarlarni baholashni (fakultetlarda korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ullar/koordinatorlarni jalb qilgan holda) amalga oshirilishini tashkil qiladi, shu bilan birga quyidagi vazifalarni ham bajaradi:

institutdagi korrupsion xavf-xatarlarni baholash jarayoni ustidan umumiy nazoratni olib borish;

mazkur Uslubiyotda nazarda tutilgan tartibga rioya qilish yuzasidan fakultetlarda, institutning rahbariyati bo'linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullarga / koordinatorlarga maslahat beradi;

fakultetlardan olingan korrupsion xavf-xatarlar xaritalarini umumlashgan korrupsion xavf-xatarlar xaritasiga jamlaydi;

rektorga, fakultetlar va bo'limlar rahbarlariga xavf-xatami baholash natijalarini va korrupsion xavf-xatarlarning umumlashgan xaritasini taqdim etadi;

institutdagi korrupsion xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirilishini nazorat qiladi va muvofiqlashtiradi;

zarurat tugilganda, institut tarkibiy bo'linmalari rahbari va koordinatorlaridan yoki fakultetlardagi korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ul shaxslardan qo'shimcha ma'lumot va hujjatlarni so'raydi;

korrupsiyaning paydo bo'lishiga olib keluvchi shart-sharoitlar va sabablarni bartaraf etishga doir tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan takliflar kiritadi;

institut tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturlarni ko'rib chiqish natijasida ularni qabul qilishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida xulosalar tayyorlaydi; ushbu Uslubiyotda nazarda tutilgan boshqa vazifalarni ham bajaradi.

10. Institutda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar/koordinatorlar korrupsion xavf-xatarlarni baholashni amalga oshiradi va tashkil qiladi, shuningdek ular quyidagi-vazifalarni bajaradi:

Korrupsion xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirish yuzasidan ishchi guruhlar faoliyatini muvofiqlashtiradi;

Fakultetlar hamda bo'limlarda korrupsion xavf-xatarlarni baholash jarayonini nazorat qilib boradi;

Institutning bo'limlariga mazkur Uslubiyotda nazarda tutilgan tartib-qoidalarga rioya etish yuzasidan maslahatlar beradi;

Zarurat tugilganda tegishli fakultetlar hamda bo'limlar rahbarlaridan qo'shimcha ma'lumot va hujjatlarni so'rab oladi;

Fakultet hamda bo'limlarda korrupsion xavf-xatarlar xaritalarini tuzadi;

Ushbu Uslubiyotda nazarda tutilgan tartibda korrupsion xavf-xatarlar xaritalarining zaruriy kelishuvini ta'minlaydi;

Tegishli fakultetlar hamda bo'linmalarda korrupsiyaning paydo bo'lishiga olib

keluvchi shart-sharoitlar va sabablarni bartaraf etishga doir tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan takliflar kiritadi;

Tegishli fakultetlar hamda bo'linmalarda korrupsion xavf-xatarlarni kamaytirishga doir tadbirlarni amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

Ushbu Uslubiyotda nazarda tutilgan boshqa vazifalarni ham bajaradi.

2- bob. Korrupsion xavf-xatarlarni birlamchi baholash

11. Korrupsion xavf-xatarlarni birlamchi baholash rektor buyrug'i va fakultetlar hamda bo'linmalar rahbarlarining tegishli buyruqlari asosida institutda, barcha fakultetlar hamda bo'linmalarda amalga oshiriladi.

Rektor buyrug'i loyihasini Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplyans nazorat" tizimini boshqarish bo'limi tomonidan tayyorlaydi. Buyruq loyihasida mazkur Uslubiyotda nazarda tutilgan har bir bosqichni amalga oshirish muddatlari aniq ko'rsatilishi lozim.

Korrupsion xavf-xatarlarni birlamchi baholashning umumiy muddati 3 oy dan oshmasligi kerak.

12. Korrupsion xavf-xatarlarni birlamchi baholash o'z ichiga funksiyalarning korrupsion xavf-xatarga duch kelish darajasini oldindan baholashni va tegishli funksiyalar doirasida institut xodimlari tomonidan bajariladigan ayrim tartib-taomillarda korrupsion xavf-xatarlar darajasini baholashni qamrab oladi.

13. Korrupsion xavf-xatarlarni birlamchi baholash mazkur bobning 14-20- bandlarida ko'rsatilgan tartibda va ketma-ketlikda pastdan (fakultetlar hamda bo'linmalardan) yuqoriga (institut darajasigacha) amalga oshiriladi.

14. Birinchi bosqichda ishchi guruhlar rahbarlari mazkur Uslubiyotning 1- ilovasida keltirilgan funksiyalarni tasniflash shakli (keyingi o'rinlarda - shakl) asosida institut tomonidan amalga oshiriladigan funksiyalar va tadbirlar tavsifini ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatmalar tayyorlashadi.

Topshiriqda to'ldirilgan shakllarni ishchi guruhga topshirish muddati (10 ish kunidan kam bo'lmagan) ko'rsatiladi.

Shakllarni to'ldirish xls yoki doc. elektron formatida amalga oshiriladi. Shakllarga qo'shimcha ustunlar qo'shishga yo'l qo'yilmaydi.

Instituting tarkibiy bo'linmalari rahbarlari shakllarni quyidagi tartibda to'ldiradilar:

Shaklga funksiyalar doirasida bajariladigan vazifalar va tartib-taomillarning to'liq ro'yxati, shuningdek ularni bajarishga mas'ul bo'lganlar kiritiladi;

O'z tajribalariga hamda ushbu Uslubiyotning 4-bobida keltirilgan mezonlarga asoslanib, har bir funktsiyaning korrupsiya xavf-xatarga duchor bo'lish darajasi baholanadi;

O'z tajribalariga hamda ushbu Uslubiyotning 4-bobida keltirilgan mezonlarga asoslanib, har bir tartib-tamoyilga xos bo'lgan xavf darajasi baholanadi;

korrupsion xavf-xatarga ko'proq moyil bo'lgan funksiyalarga taalluqli tartib-taomillar uchun quyidagi ma'lumotlar to'ldiriladi:

— ushbu tadbir doirasida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ekstremal korrupsion senariyalar (xavf-xatarlar);

— korrupsiya senariylarini (xavf-xatarlarini) amalga oshirish xavfini kamaytirishga qaratilgan antikorrupsion tadbirlarini bajarilishi;

— antikorrupsion tadbirlarni amalga oshirish uchun mas'ul xodimlarni;

— antikorrupsion tadbirlar belgilangan normativ-huquqiy va ichki hujjatlarni;

— shuningdek, o'z tajribalari va ushbu Uslubiyotning 4-bobida ko'rsatilgan mezonlarga asoslanib, qoldiq korrupsion xavf-xatarlar darajasi baholanadi.

Institut tomonidan to'ldirilgan shakllar tahlil qilish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi - institutning tarkibiy bo'linmasi xodimlariga/koordinatorlariga yoxud ishchi guruhi tarkibiga kiritilgan korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ullarga yuboriladi. Funktsiyalar/tadbirlar hamda ularga berilgan xavf-xatar darajalariga oid savollar va kamchiliklar aniqlangan taqdirda, Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi xodimlari/koordinatorlar yoki korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar tomonidan funktsiyalar/tadbirlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linma rahbarlariga izoh, berish va (yoki) shakllarni to'g'rilash bo'yicha so'rovnomalar yuboriladi. Javob xati Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi xodimlari/koordinatorlar yoki korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullarga so'rov olingan kundan boshlab 2 ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda yuborilishi zarur.

Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi xodimlari/koordinatorlar yoki korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar o'zlarining ekspert xulosalariga tayangan holda funktsiyalar yoki tadbirlarning korrupsion xavf-xatarlar darajasini o'zgartirishlari mumkin, shuningdek tuzilmaviy bo'linmalar tomonidan bajarilgan xatarlarni baholashga boshqa o'zgartirishlar kiritishlari mumkin.

To'liq to'ldirilganlik nuqtai-nazaridan shakllarni tahlil qilish, xatarlar darajasini aniqlash Uslubiyotiga amal qilish, turli tarkibiy bo'linmalar tomonidan shakllarni to'ldirish o'rtasida nomuvofiqlik natijalariga ko'ra, Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi xodimlari/koordinatorlar yoki korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar institutning korrupsion xavf-xatarlari xaritalarini mazkur Uslubiyotning 3-ilovasida ko'rsatilgan shaklda to'ldiradilar, shuningdek korrupsion xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadilar.

Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi xodimlari/koordinatorlar yoki korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar korrupsion xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha chora- tadbirlarni xavf-xatarlar xaritasiga kiritish jarayonida tegishli tarkibiy bo'linmalar rahbarlari bilan kelishadilar.

Agar Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi xodimlari/koordinatorlar yoki korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar hamda tarkibiy bo'linma rahbarlari aniqlangan xavf-xatarlar, funktsiyalar va tadbirlarni baholash darajasi, xatarlarni kamaytirish va boshqa masalalarda kelisha olmasa, har ikki tomonning pozitsiyasi institut, tegishli hududiy boshqarma, bo'ysunuvchi markaz yoki muassasaning korrupsion xavf-xatarlar xaritasida o'z aksini topadi yoxud tegishli ishchi guruhga ko'rib chiqish uchun taqdim etiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi xodimlari/koordinatorlar yoki korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar institutning korrupsion xavf-xatarlar xaritasini ishchi guruhlariga ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritadilar. Ishchi guruhlar yig'ilishi natijalari bo'yicha bayonnomalar tuzilib, unda qabul qilingan qarorlar qayd etib boriladi. Bayonnomalar barcha ishchi guruhlar a'zolari tomonidan imzolandi va Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi xodimlarida saqlandi.

Institut, fakultetlar hamda bo'linmalarining korrupsion xavf-xatarlar xaritalarini tuzish va kelishish muddati funktsiya/tadbirlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linmalar rahbarlariga shakllarni taqdim etish uchun belgilangan kundan boshlab 20 ish kunidan oshmasligi kerak (korrupsion xavf-xatarlarini baholash bo'yicha institut buyrug⁴ da ko'rsatiladi).

15. Ishchi guruhlar tomonidan fakultetlar hamda bo‘linmalarning korrupsion xavf-xatarlar xaritalarini tasdiqlanganidan so‘ng, koordinatorlar yoki korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas‘ullar ulami Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limiga yuboradilar,

16. Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi fakultet hamda bo‘linmalarning korrupsion xavf-xatarlarining umumlashgan xaritalarini mazkur Uslubiyotning 3-ilovasida keltirilgan shaklda tayyorlaydi, shu asosda institute, fakultetlar hamda bo‘linmalarning korrupsion xavf-xatarlar xaritalari tayyorlanadi.

17. Agar savollar va kamchiliklar aniqlansa Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha koordinatorlar/mas‘ullarga fakultetlar hamda bo‘linmalarning tegishi rahbariga aniqlangan kamchiliklar yuzasidan so‘rovnomaga yuboradi. Javob xati so‘rov olingan kundan boshlab 2 ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatda taqdim qilinishi shart.

18. Korrupsion xavf-xatarlarning umumlashgan xaritasini tuzish Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limiga korrupsion xavf-xatarlar xaritasini taqdim etish uchun belgilangan kundan boshlab 10 ish kunidan oshmasligi zarur (korrupsion xavf-xatarlarini baholash bo‘yicha rektor buyrug‘ida ko‘rsatiladi).

19. Qoldiq korrupsion xavf-xatar darajasi yuqori bo‘lgan tadbirlar uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi, fakultetlar hamda bo‘linmalarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha koordinatorlari/mas‘ullari korrupsion xavf-xatarga ko‘proq moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatini mazkur Uslubiyotning 5-ilovasiga muvofiq ishlab chiqadilar.

20. Institut, fakultetlar hamda bo‘linmalarning korrupsion xavf-xatarlarining yakuniy xaritasi hamda korrupsion xavf-xatarga ko‘proq moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi, fakultetlar hamda bo‘linmalarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas‘ullarning takliflari asosida rektor va tegishli fakultetlar hamda bo‘linmalarning rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

Korrupsion xavf-xatarlarning umumlashgan xaritasi institutning Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi tavsiyasiga asosan rektor tomonidan tasdiqlanadi.

3- bob. Korrupsion xavf-xatarlarni keyinchalik (har yilgi) baholanishi

21. Institutda korrupsion xavf-xatarlarni keyinchalik baholash rektor buyrug‘i va tegishli fakultetlar hamda bo‘linmalar rahbarlari buyruqlari asosida doimiy tarzda, yilda bir marotaba amalga oshiriladi.

Rektor buyrug‘i loyihasini Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi tayyorlaydi. Buyruq loyihasida mazkur Uslubiyotda nazarda tutilgan har bir bosqichni ijro etish muddatlari majburiy tartibda ko‘rsatiladi.

Korrupsion xavf-xatarlarni keyinchalik (har yilgi) baholanishi muddati 2 oydan oshmaydi.

22. Korrupsion xavf-xatarlarni har beshinchi keyinchalik (har yilgi) baholanishi (ya‘ni 5 yilda bir marta) korrupsion xavf-xatarlarni birlamchi baholanishi tartibida o‘tkaziladi (2-bob).

23. Rektor va tegishli fakultetlar hamda bo‘linmalar rahbarlari buyrug‘i asosida Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi, fakultetlar hamda bo‘linmalarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha

mas'ullari/koordinatorlari fakultetlar hamda bo'linmalar rahbarlariga So'rovnoma (mazkur Uslubiyotning 2-ilovasi) yuboradi, unda rahbarlar o'z bo'linmalarining funksiyalari va tartibotlaridagi o'zgarishlarni oldingi korrupsion xavf-xatarlarni baholashga taqqoslashlari lozim, shu jumladan quyidagi axborotni:

Institut tomonidan bajariladigan funksiyalar yoki tartibotlarga ta'sir o'tkazuvchi qonunchilikda qandaydir o'zgarishlar yuz berdimi;

Institut bo'linmalar tomonidan bajariladigan funksiyalari va (yoki) tartibotlarini amalga oshirishga ta'sir qilgan yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan faoliyatda yoki boshqa davlat organlari tizimida yoki boshqa tashqi ta'sirlar qandaydir o'zgarishlar sodir bo'lganmi;

korrupsion xavf-xatarlarni yakuniy baholashdan boshlab funksiya yoki tartibotda, ichki hujjatlar asosida tartibga solinuvchi funksiya yoki tartibotda qandaydir o'zgarishlar sodir bo'lganmi;

korrupsion xavf-xatarlarni oldingi baholash bilan nazarda tutilgan korrupsion xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilganmi;

Institut tizimi tarkibiy bo'linmalarida funksiyalar yoki tartibotlarni bajarish tartibiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar mavjudmi.

24. Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi, fakultetlar hamda bo'linmalarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullari/koordinatorlari institut, fakultetlar hamda bo'linmalari rahbarlari tomonidan to'ldirilgan So'rovnomalarni yig'ib oladi, ularni tahlil qiladi va kiritilgan o'zgarishlarni belgilab, institut, fakultetlar hamda bo'linmalarning korrupsion xavf-xatarlari xaritalariga o'zgarishlar kiritadi.

So'rovnomalarni to'ldirish bo'yicha savollar va e'tirozlar paydo bo'lganda, Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi, fakultetlar hamda bo'linmalarining rahbarlariga talabnoma yuboradi. Mazkur so'rovga javob 2 ish kunida taqdim etilishi lozim.

Korrupsion xavf-xatarlar xaritalariga tuzatishlar kiritish muddati tarkibiy bo'linmalar rahbarlari funksiya/tartibotni bajarilishiga mas'ullar uchun So'rovnomalarni taqdim qilish uchun belgilangan muddatdan 10 ish kunidan oshmasligi kerak (korrupsion xavf-xatarlarini baholash bo'yicha rektor buyrug'ida ko'rsatiladi).

25. Korrupsion xavf-xatarlar xaritalarini tuzatilgan shaklini (ularda belgilangan o'zgarishlar bilan) fakultetlar hamda bo'linmalarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullari/koordinatorlari Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limiga yuboradi.

26. Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi korrupsion xavf-xatarlarning umumlashgan xaritasini tayyorlaydi va unda oldin o'tkazilgan korrupsion xavf-xatarlarni baholashga solishtirgan holda o'zgarishlarni belgilaydi.

Tegishli savollar va e'tirozlar paydo bo'lganda, Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi, fakultetlar hamda bo'linmalarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullari/koordinatorlari tomonidan institut, tegishli fakultetlar hamda bo'linmalar rahbarlariga talabnoma yuboradi. Mazkur so'rovga javob 2 ish kunida taqdim etilishi lozim.

27. Korrupsion xavf-xatarlarning umumlashgan xaritalarini tayyorlash davri Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limiga korrupsion xavf-xatarlar xaritalarini taqdim etish uchun belgilangan vaqtdan boshlab 10 ish kunidan ortmasligi lozim (korrupsion xavf-xatarlarini baholash bo'yicha rektor buyrug'ida

ko'rsatiladi).

28. Qoldiq korrupsion xavf-xatarlarning yuqori darajasi bilan tavsiflanadigan tartibotlar uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi, fakultetlar hamda bo'linmalarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ma'sullari/koordinatorlari tomonidan mazkur Uslubiyotning 5-ilovasi asosida korrupsion xavf-xatarlarga eng ko'p duch keladigan lavozimlar ro'yxatini ishlab chiqadi.

29. Institut, fakultetlar hamda bo'linmalarning korrupsion xavf-xatarlarining yakuniy xaritasi hamda korrupsion xavf-xatarlarga eng ko'p duch keladigan lavozimlar ro'yxati Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'linini, fakultetlar hamda bo'linmalarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ma'sullari/koordinatorlari tavsiyasiga ko'ra rektor, fakultetlar hamda bo'linmalar rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'linini tavsiyasi asosidagi Korrupsion xavf-xatarlarining umumlashgan xaritasi rektor tomonidan tasdiqlanadi.

4- bob. Institutda amalga oshiriladigan funktsiya va tartibotlarda korrupsion xavf-xatarlar darajasini baholash Uslubiyoti

30. Korrupsion xavf-xatarlarni baholash tashqi va ichki axborot manbalarining ma'lumotlari asosida tahlil qilinadi, shujumladan:

korrupsion xavf-xatarlarni baholash o'tkaziladigan funktsiyalarni amalga oshirishni tartibga soluvchi institut ichki hujjatlari va normativ-huquqiy hujjatlari (masalan, tarkibiy bo'linmalar to'g'risidagi nizom, xodimlarning lavozim Uslubiyotlari va boshqalar);

ichki tekshiruvlar, shujumladan xizmat tekshiruvlari materiallari;

ichki audit va korrupsiyaga qarshi monitoring natijalari;

odob-axloq qoidalari bo'yicha Komissiya yig'ilishlari natijalari;

manfaatdor tomonlar, ta'lim xizmatlarini oluvchilar, ekspertlar va boshqa manfaatdor shaxslar bilan o'tkazilgan so'rovnoma, shu jumladan sotsiologik tadqiqotlar natijalari bo'yicha olingan institut xodimlari tomonidan amalga oshirilgan korrupsion xati-harakatlar faktlari haqidagi xabarlar;

Institut faoliyati sohasida huquqbuzarliklar haqidagi statistik ma'lumotlar;

korrupsion xati-harakatlar to'g'risida xabarlar uchun mo'ljallangan aloqa kanallariga fuqaro va yuridik shaxslar tomonidan murojaatlar, shu jumladan "Ishonch telefonlari", Rektor qabulxonasi telegram kanali, telegram botlariga murojaatlar;

Institut xodimlari tomonidan axloq-odob qoidalariga rioya qilmaslik faktlari yoki ularning korrupsion xati-harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettirilgan fiiqarolik jamiyati murojaatlari va OAVdagi ma'lumotlar;

ijtimoiy tarmoqlardagi izohlar;

huquqni muxofaza qilish organlari tomonidan taqdim qilingan materiallar, shu jumladan prokuroming javob choralari, jinoiy ishlar bo'yicha materiallar va boshqalar.

31. Korrupsion xavf-xatarlarni baholash jarayonida Institutdagi har bir funktsiya va tartibotlarni korrupsion xati-harakatlarni amalga oshirishning xarakteristik nuqtai-nazaridan chuqur tahlil qilish zarur,

32. Har bir funktsiya quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi: korrupsion xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan funktsiya; korrupsion xavf-xatarlarga eng kam moyil bo'lgan funktsiya.

33. Funksiya quyidagi hollarda korrupsion xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan hisoblanadi:

Institut, fakultetlar hamda bo‘linmalar yuklatilgan kuzatuv yoki nazorat funksiyasini amalga oshirilishi;

funksiya doirasida fuqarolar yoki yuridik shaxslar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shaxsiy o‘zaro aloqa amalga oshiriladi;

funksiyani bajarish natijasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida va ichki hujjatlarda belgilangan tadbirlarni kelishish va tasdiqlash, davlat namunasidagi hujjatlar, ruxsatnomalar, xulosalar (shu jumladan baholash xulosalari) berilishi;

funksiya doirasida institutning byudjet mablaglari va/yoki mulki begonalashuvi amalga oshadi yoxud institutning byudjet mablag‘lari va mulkini oluvchilar tanlanadi;

funksiya doirasida tovarlarni yetkazish, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish uchun buyurtmalarni joylashtirish amalga oshiriladi;

funksiya doirasida institut ixtiyorida yeri uchastkalari, boshqa ko‘chmas mulk ob‘yektlarini ijaraga olish bo‘yicha shartnomalarni tuzish huquqi beriladi;

funksiya doirasida sub‘yektiv ko‘rsatkichlarga ko‘ra bir necha nomzodlar (jismoniy yoki yuridik shaxslar) taqqoslanadi;

funksiya doirasida moddiy-texnik resurslarning saqlanishi va taqsimlanishi amalga oshiriladi;

Institutdagi ta‘lim muassasalarida Yakuniy davlat attestasiyasi o‘tkaziladi;

Institutdagi ta‘lim muassasalari abituriyentlarni qabul qilinishi;

Institutdagi ta‘lim muassasalari talabalarining o‘zlashtirish natijalarini baholanishi;

Institutda talabalar o‘qishini ko‘chirish, qayta tikiash, talabalar safidan chiqarish masalalari bo‘yicha qarorlar qabul qilish, shuningdek Yakuniy davlat attestasiyasini qayta topshirishga ruxsat berilishi;

Mazkur funksiya bilan bog‘liq tekshirishlar natijasiga ko‘ra korrupsion harakatlar to‘g‘risida axborot berish uchun mo‘ljallangan aloqa kanallari orqali tasdiqlangan xabarlar yoki shikoyatlarning mavjudligi;

mazkur funksiyani amalga oshirish doirasida korrupsiyaga oid faktlar yoki gumonlar to‘g‘risidagi axborotni (shu jumladan ijtimoiy tarmoqlardagi izohlarni inobatga olgan holda) chop etilishi;

funksiyani amalga oshiruvchi tarkibiy bo‘linma rahbari lavozimiga vakant o‘rinning mavjudligi yoxud tarkibiy bo‘linma rahbarlarining tez-tez almashinuvi;

funksiya bilan bog‘liq bo‘lgan korrupsion qonunbuzarliklar to‘g‘risida huquqni muxofaza qiluvchi organlar, boshqa davlat organlari, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan taqdim etilgan materiallarning mavjudligi;

xizmat vazifalarini bajarish jarayonida manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha tasdiqlangan faktlarining mavjudligi, shu jumladan xizmat vazifalarini bajarish jarayonida favoritizm, nepotizm (qarindosh- urug‘chilik), mahalliychilik, guruhbozlik holatlarining mavjudligi.

34. Mazkur Uslubiyotning 33-bandida ko‘zda tutilmagan holatlarda funksiya korrupsion xavf-xatarga eng kam darajada moyil deb hisoblanadi.

35. O‘rganilayotgan funksiya doirasida bajariladigan tartib-taomillarga xos bo‘lgan xavf-xatami baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

yuqori xos xavf funksiya doirasida amalga oshiriladigan korrupsion xavf-xatarga eng ko‘p moyil bo‘lgan tartib-taomillar uchun o‘atiladi;

o‘rtacha xos xavf funksiya doirasida amalga oshiriladigan korrupsion xavf-xatarga

eng kam moyil bo‘lgan tartib-taomillar uchun o‘matiladi;

ichki xos xavf mazkur Uslubiyotga kiritilmagan, shunday bo‘lsada O‘zbekiston Respublikasi korrupsion xavf-xatarlar yuqori (korrupsiyaning tarqalishi va uning qabul qilinishi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglarda joriy holati asosida) mamlakat ekanligini inobatga olgan holda, Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limining asoslangan xulosalariga ko‘ra alohida hollarda qo‘llanilishi mumkin. Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limining asoslangan xulosalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaning tarqalishi va uning qabul qilinishi bo‘yicha mamlakatda umumiy vaziyatni yaxshilanishi natijasiga ko‘ra, quyi xos korrupsion xavf mazkur Uslubiyotga kiritilishi mumkin.

36. Extimoliy korrupsion senariy (xatar)lar quyidagilarni amalga oshirish imkoniyatidan kelib chiqib shakllanadi:

Xodimlar yoki o‘zlarining yaqin qarindoshlari tomonidan poralar olish, shuningdek xodimning o‘z xizmat vazifalarini vijdonan bajarmaslik evaziga asoslanmagan yuqori darajadagi mukofotlarga, preferensiyalarga va imtiyozlarga (shu jumladan tovarlar sotib olishda imtiyozlarga) ega bo‘lishi, turli darajadagi tashviqotlar yoki shaxslar xizmatlaridan foydalanishi;

ta‘lim xizmatlarini olishda yoki ko‘rsatishda sun‘iy to‘siqlarni yaratish;

belgilangan muddatlarda qaror qabul qilmaslik yoxud navbatdan tashqari tartibida tezkor qaror qabul qilish, shuningdek alohida jismoniy yoki yuridik shaxsga nisbatan mavjud talablarni aylanib o‘tish;

hujjatlarga, ma‘lumotlarning elektron bazasiga bilib turib noto‘g‘ri ma‘lumotlarni kiritish;

xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilishi, shu jumladan xizmat vazifalarini bajarish jarayonida favoritizm, nepotizm (qarindosh-urug‘chilik), mahalliychilik, guruhbozlik holatlarining mavjudligi.

37. Qoldiq korrupsion xavf-xatar darajasini baholashda xavf hodisasi (mazkur Uslubiyotning 6-ilovasida keltirilgan 6.1-jadvaldagi mezonlar) va xavf hodisasining yuzaga kelish extimolini xatarlar ahamiyati matrisasidan foydalangan holda (mazkur Uslubiyotning 6-ilovasida keltirilgan 6.2-jadvaldagi mezonlar) yuzaga chiqishiga ta‘sir qilishi mumkinligini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

5-bob. Korrupsion xavf-xatarining qoldiq darajasini kamaytirish choralari

38. Korrupsion xavf-xatarlarning qoldiq darajasini kamaytirishga xizmat qiluvchi tadbirlar, nazorat va harakatlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Institutdagi funksiyalar va tartibotlarni tartibga solinganligi;

ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatish tartibotlarini optimallashtirish, asoslanmagan cheklavlarni va ortiqcha ma‘muriy tartibotlarni bartaraf etish, tartibga solishning byurokratik mexanizmlarini chiqarib tashlash, ixtiyoriy vakolatlar miqdorini kamaytirish, topshiriladigan hujjatlar sonini va qaror qabul qilish muddatlarini qisqartirish;

ma‘muriy tartibotlar va boshqa harakatlar qo‘llaniladigan institut xodimlari va murojaatchi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni maksimal kamaytirish, ma‘lumot almashinuvining elektron tizimini joriy etish;

xizmat faoliyatini amalga oshirish jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llash sohalarini kengaytirish, ish jarayonlarini avtomatlashtirish, videokuzatuv vositalaridan foydalanish va audioyozuvlarni qayd qilish;

amalga oshirilayotgan davlat haridlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni rasmiy veb-saytda

hamda boshqa OAVlarida joylashtirish orqali tarqatish;

davlat organida korrupsiya holatlari bo'yicha jamoatchilikni xabardor qilishni rag'batlantirishga qaratilgan birinchi navbatda fuqarolar, nodavlat notijorat tashqilotlari va OAV bilan o'zaro hamkorlik shakllarini kengaytirish;

Institut, fakultet hamda bo'limlarda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va profilaktik suhbatlarni o'tkazish, "Ishonch telefoni" va aloqa kanallarini targ'ib qilish;

korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha institut xodimlarini o'qitish;

nomzodlar tanlovini o'tkazish mexanizmini takomillashtirish, ularni aniq mezonlarini o'rnatish hamda shaffoflikni ta'minlash, korrupsion xavf-xatarlarga ko'proq moyil lavozim egalari institut xodimlarini majburiy rotatsiyasi tartibini tasdiqlash;

bir kishi tomonidan qarorlar qabul qilish holatlarini kamaytirish, shuningdek qabul qilingan qarorlar natijalari bo'yicha institut xodimlari tomonidan hisobot berishda qo'shimcha shakllarni joriy etish;

Institut xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish masalalari bo'yicha ichki hujjatlarga amal qilinishi bo'yicha nazoratni ta'minlash;

Institutda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi elementlarini samarali amal qilishini ta'minlash.

39. Korrupsion xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni aniqlashda quyidagi shartlar o'z aksini topishi zarur:

har bir chora-tadbir tushunarli va aniq qilib shakllantirilishi kerakki, u Institut xodimlarining to'liq anglashiga xizmat qilishi zarur, uning maqsadi va yakuniy natijasi konkret korrupsion xavf-xatarlarni kamaytirish bilan bog'langan bo'lishi lozim;

har bir chora-tadbir uchun amalga oshirish davriyligi va muddati o'atilgan bo'lishi, amalga oshirish uchun mas'ul ijrochilar, shuningdek uning samaradorligini baholash va amalga oshirish monitoringi mexanizmlari belgilanishi kerak.

40. Institut, fakultetlar hamda bo'limlarda aniqlangan korrupsion xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha tadbirlar (o'zlarining korrupsion xavf-xatarlar xaritalariga kiritilgan) institut va uning fakultetlari hamda bo'limlarining korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Dasturlariga kiritiladi (mazkur Uslubiyotning 4-ilovasi).

Korrupsion xavf-xatarlar xaritalarida o'z aksini topgan aniqlangan korrupsion xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha tadbirlarni institutning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturlariga kiritiladi.

41. Korrupsion xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha tadbirlar ijrosini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlik rektor va fakultetlar hamda bo'linmalar zimmasiga yuklanadi.

42. Institutda korrupsion xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha tadbirlar ijrosi nazorati Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

6- bob. Yakuniy qoidalar

43. Zaruriyat tug'Uganda, Institutda korrupsion xavf-xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bilan bog'liq masalalar Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi, fakultetlar hamda bo'limlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ma'sullari/koordinatrlari taklifiga asosan rektor va fakultetlar hamda bo'limlarning rahbarlari tomonidan ko'rib chiqiladi.

Xatarlarni birlamchi baholash uchun bajariladigan funksiyalar va tartibotlar
TAVSIFI

1. Bo‘linma
 - 1.1. Organ yoki muassasa nomi
 - 1.2. Bo‘linma
 - 1.3. Bo‘lim
 - 1.4. Boshqarma
2. To‘ldirish uchun mas’ul
 - 2.1. Familiya va ismi
 - 2.2. Lavozimi

№	Funksiya nomlanishi	Korrupsion xavf-xatarga moyillik darajasi yuqori darajada moyil/kam darajada moyil	Funksiya doirasida bajariladigan tadbir nomi	Tadbirni bajarish uchun javobgar shaxslar (lavozim, bo‘linma)	Ehtimoliy korrupsion sxema (xatar)ni qisqacha tavsifi	Xos korrupsion xatar (yuqori/o‘rtacha/past)	Mavjud nazorat tadbirlari/korrupsion xatarlarni kamaytirish bo‘yicha choralar	Korrupsion xatarlarni kamaytirish bo‘yicha choralar/nazorat tadbirlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy va ichki hujjatlar	Korrupsion xatarlarni kamaytirish bo‘yicha choralar/nazorat tadbirlarini bajarish uchun javobgar shaxslar	Korrupsion xatar extimol- ligi (yuqori/o‘rtacha/past)	Korrupsion xatar oqibatlari (yuqori/o‘rtacha/past)	Qoldiq xatar darajasi (yuqori/o‘rtacha/past)	Izohlar (zarurat bo‘lganda)
1													
2													

Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro institutida korrupsion
xavf-xatarlarni baholash Uslubiyotiga
2-ilova

Korrupsion xavf-xatarlarni keyinchalik baholash yuzasidan Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti funksiyalarini
tavsiflash bo'yicha

SAVOLNOMA SHAKLI

Iltimos, quyidagi savollarga javob bering (to'g'risini tagiga chizib qo'ying):

1. Korrupsion xavf-xatarni yakuniy baholashdan boshlab qonunchilikda qandaydir o'zgarishlar sodir bo'ldimi? Agar javob ijobiy bo'lsa, quyidagi jadvalga tegishli ma'lumotlarni kiriting.

A) Xa B) Yo'q

2. Korrupsion xavf-xatami yakuniy baholashdan boshlab Sizning tarkibiy bo'linmangiz bajaradigan funktsiya tarkibida yoki funktsiya faoliyatini tartibga soluvchi ichki hujjatlarda qandaydir o'zgarishlar sodir bo'ldimi? Agar javob ijobiy bo'lsa, quyidagi shaklga tegishli ma'lumotlarni kiriting.

A) Xa B) Yo'q

3. Korrupsion xavf-xatami yakuniy baholashdan boshlab Sizning tarkibiy bo'linmangiz faoliyatida/davlat boshqaruvi organlari tarkibida funktsiyani amalga oshishiga ta'sir o'tkazishi mumkin/ ta'sir o'tkazgan qandaydir o'zgarishlar sodir bo'ldimi? Agar javob ijobiy bo'lsa, quyidagi shaklga tegishli ma'lumotlarni kiriting.

A) Xa B) Yo'q

4. Korrupsion xavf-xatami oldingi baholashda nazarda tutilgan korrupsion xavf-xatami kamaytirish bo'yicha tadbirlar amalga oshirildimi? Nima va qachon amalga oshirilganini ifodalab bering. Agar amalga oshirilmagan bo'lsa yoki qisman amalga oshirilgan bo'lsa, nima uchunligini yozib bering.

A) Xa B) Yo'q V) Qisman amalga oshirilgan

5. Vazirlik tizimining bo'linmalarida funktsiyani bajarish tartibiga va tadbirlarni amalga oshirilishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan boshqa sabablar mavjudmi? Agar javob ijobiy bo'lsa, quyidagi jadvalga tegishli ma'lumotlarni kiriting.

A) Xa B) Yo'q

Institutda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha DASTUR

№	Institut/huzuridagi boshqarma, bo'ysunuvchi markaz yoki muassasa nomi	Institut/huzuridagi boshqarma, bo'ysunuvchi markaz yoki muassasa bo'linmasi	Funksiyani o'zgarishi sabablari	Funksiyani o'zgarishlari tavsifi	Funksiya doirasida bajariladigan yangi/o'zgartirilgan tartiblar	Tartiblarni bajarilishiga mas'ul shaxslar (ism-sharifi, lavozimi)
1.1.						
1.2.						
2.1.						
2.2.						

Korrupsion xatarga moyilligi yuqori bo'lgan institut lavozimlari

RO'YXATI

№	Institut/ huzuridagi muassasa nom	BoMinmalar funksiyalarini bajarishga mas'ul shaxslar (lavozim)	Bo'linma nomi
1.1.			
...			
2.1.			
...			

**6.1-jadval - Korrupsion xatar extimoli
darajasini aniqlash mezonlari**

Extimollik	Ta’riflash
Yuqori	<ul style="list-style-type: none"> - Xos xavf darajasi yuqori, va - Nazorat tadbirlarining mavjud emasligi / keng ko‘lamli qayta ishlashni talab qiluvchi nazorat tadbirlarining mavjudligi, va - Ichki hujjatlar asosida tadbirlarni aniq reglamentining mavjud emasligi, va - Tartibotni avtomatlashtirishning mavjud emasligi/past darajaligi
O‘rta	<ul style="list-style-type: none"> - Xos xavf darajasi o‘rta, va - Tadbir tartibga solingan, uncha ko‘p bo‘lmagan qayta ishlashni talab etuvchi nazorat tadbirlari joriy qilingan, yoki - Tadbir tartibga solingan, qisman avtomatlashtirilgan, lekin yetarli darajada shaffof emas. yoki - Xos xavf darajasi yuqori, va - Xavfni kamaytirish uchun yetarli bo‘lgan nazorat tadbirlarining mavjudligi, shu jumladan eng kamida uch kishi tomonidan o‘zaro funksional nazorat (instituti/instituti muassasalarning tarkibiy bo‘linmalari nazoratini ko‘zda tutuvchi Institut ichki hujjatlari bilan tartibga solish, va - Tadbir qisman yoki to‘liq avtomatlashtirilgan.

Quyida	<ul style="list-style-type: none">- Xos xavf darajasi quyi yoki- Xos xavf darajasi oʻrta, va- Xavfni kamaytirish uchun yetarli boʻlgan nazorat tadbirlarining mavjudligi, shu jumladan eng kamida uch kishi tomonidan oʻzaro funksional nazorat (instituti/instituti muassasalarning tarkibiy boʻlinmalari nazoratini koʻzda tutuvchi institut ichki hujjatlari bilan tartibga solish, va- Tartibot toʻliq avtomatlashtirilgan.
--------	--

**6.2-jadval Korrupsion xavf-xatar
ta'siri darajasini aniqlash mezonlari**

Tasir	Obro'ga putur yetkazish	javobgarlik
Yuqori	- Xavf-xatar institut obrusiga mamlakatlar /halqaro darajada katta ta'sir qiladi	- Institut xodimlariga nisbatan jinoiy ish ochilishi
O'rta	OAVda salbiy xolatning yoritilishi; Aholi va hamkorlar tomonidan salbiy fikrlar va shikoyatlar bildirilishi; Xavf-xatar institut obrusiga mahalliy darajada ta'sir qiladi.	- Institut xodimlariga nisbatan ma'muriy ish ochilishi
Quyi	- Axoli, mahalliy OAVlardan mavjud holatga izoh berish borasida talablar bo'lishi mumkin	- Institut xodimlariga nisbatan ma'muriy ish ochilishi